

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53409-3.15

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus

ta'lim vazirligi

"8" iyul 2003 y.

**BOSHQA TARMOQLARDA BUXGALTERIYA
HISOBINING XUSUSIYATLARI
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"
ta'lim sohasidagi 5340900 - "Buxgalteriya
hisobi va audit" bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: dots. Xasanov B. A.,
k.o'q. Qo'ziev I. N.,
k.o'q. Boqieva H. A.

Taqrizchilar: prof. Vohidov S. V.,
dots. Mamatov Z. T.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq 2001 yil 16 avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 343-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida Davlat ta'lim standartlari tasdiqlandi. Davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqilishi bilan har bir fan bo'yicha yangi shakldagi dasturlar tayyorlash zaruriyatini tug'dirildi. "Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari" fanini talabalarga o'qitishning zaruriyati shundaki, respublikamizda buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlari asosida iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan, qurilish, qishloq xo'jaligi, savdo va transport tashkilotlarida tashkil etilishi va yuritish tartib-qoidalarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni taqozo etmoqda.

"Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari" fani bo'yicha tuzilgan ushbu dastur Oliy ta'limning bakalavrlar tayyorlash saviyasi va mazmuniga qo'yilgan barcha talablarga javob beradi. Unda qurilish, qishloq xo'jaligi, savdo va transport tashkilotlarida buxgalteriya hisobining xususiyatlarini o'zida aks ettiradigan 6 ta bo'lim va 15 ta mavzu mavjud.

Dasturda, "Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari" fanining maqsadi, vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi, Davlat ta'lim standartiga muvofiq bilim va ko'nikmalar, amaliy va seminar mashg'ulotlar bo'yicha ishlarning minimal miqdori, kompyuterda informatsion texnologiyalarni qo'llash, fan dasturi, amaliy va seminar mashg'ulotlari, tavsiya etiladigan mavzular bo'yicha ko'rgazma namoyish materiallari, o'quv filmlar va boshqa didaktik materiallar ro'yxati, talabalarning reyting asosida baholash bo'yicha o'zlashtirishning nazorati hamda adabiyotlar ro'yxati o'z ifodasini topgan.

Во исполнение закона "Об образовании" и национальной программы по подготовке кадров было принято постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан №343 16 августа 2001 года. В связи с этим по разработке Государственных Стандартов образования появилось необходимость подготовить программы нового поколения по каждому предмету необходимость преподавания студентам предмета.

Изучение курса "Особенности бухгалтерского учета других отраслей" должно сопровождаться с учетом особенностей строительства, торговли, сельского хозяйства и транспортной сферы.

В этой программе в 6 частях и 15 темах отражены особенности бухгалтерского учета в вышеназванных отраслях.

В программе освещаются цель, задачи, взаимосвязь с другими предметами, соответствующие знания и практика по государственному стандарту образования, минимальные работы по практическим и семинарским занятиям, применение компьютерной информационной технологии, программа предмета, практические и семинарские занятия, список познавательных фильмов и других дидактических материалов, особенности контроля успеваемости студентов на основе рейтинговой системы и использование различных литератур.

By the law "On formation" and national program on preparing a personnel (frames) was accepted resolution Kabinet of Ministre Republik of Uzbekistan №343 16 august 2001 year. On the base of this resolution was designed State Standard of formation developping State Standard on has appear need to prepare the programs of the new form on each. need of teaching to students a subject.

Particularities of Accounting other branches is in that that, due be teach particularities of account in branches a construction, trading an agriculture and forming the transport institutions.

In this program in 6 parts and 15 that are reflect particularities of accounting in the construction, agriculture, trade and transport institutions.

In "Particularities of branch accounting" is conclude purpose, task, with other subjects, corresponding knowledges and practice on the state standard of formation, minimum work on practical and семинарным to occupations, using a computer information technology, program of subject, practical and occupation, showing the material on recommend subjects, cognitive film list and other didactic material a checking students on the base system and using the different literature.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish va barkamol avlodni voyaga etkazish to'g'risida"gi Farmonida (06.10.97) "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va kadrlar tayyorlash Milliy dasturini hayotga tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligi qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgust 343-sonli Qaroriga muvofiq Davlat ta'lim standartlari tasdiqlandi. Mazkur standartlar bo'yicha har bir o'qitiladigan fandan dasturlar tayyorlash zaruriyati tug'ildi. "Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari" fani bo'yicha tuzilgan ushbu dastur qo'yilgan barcha talablar asosida tayyorlangan bo'lib, "Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishidagi talabalar uchun qo'llaniladi.

O'qitishning maqsadi va vazifasi hamda boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi

Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotimizning sanoat ishlab chiqarishi bilan bir qatorda uning tub negizini tashkil etuvchi sohalarida ham o'z samarasini bermoqda. Xususan, qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo va transport tarmoqlarida boshqaruvni samarali tashkil etish uchun ulardan olinayotgan ma'lumotlarning ishonchligini ta'minlashda buxgalteriya hisobining roli nihoyatda kattadir.

Boshqacha qilib aytganda, buxgalteriya hisobi iqtisodiyotimiz turli sohalaridagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy va mulkiy holati haqida to'liq ma'lumot beradi. Bu ma'lumotning ishonchligi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar boshliqlariga xo'jalik faoliyatini boshqarish bo'yicha muhim qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

O'quv rejasiga muvofiq "Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari" fanini o'qish jarayonida talabalar iqtisodiyotimizning turli jabhalaridagi, ya'ni qishloq xo'jaligi (agrar soha), qurilish, savdo va transport sohalarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish, uni yuritishning o'zigi xos jihatlarini va xususiyatlarini o'rganadilar. Ulardagi mablag'lar va mablag'larni tashkil topish manbalarini, hujjatlashtirish tartibini, moliyaviy natijalarni shakllantirish va hisobotlar tuzish bo'yicha amaldagi Qonun va qarorlardan hamda me'yoriy hujjatlardan foydalanadi. Shu bilan birga buxgalter va auditorlar iqtisodiy vaziyatlarda tez va xatosiz mo'ljal olish, bozor iqtisodiyotining tendentsiyalarini tushunishlari zarur.

Talabalar o'quv dasturiga muvofiq asosiy yo'nalishdagi fan sifatida "Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari" fanini chuqur o'rganadilar. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida korxonalarda buxgalteriya hisobini halqaro amaliyotdan kelib chiqqan holda tashkil qilish va yuritishni o'rganish asosiy vazifa qilib qo'yiladi. Talabalar uchun bu fanni o'rganishda "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston

Respublikasi Qonuni asos qilib olinadi. Shuningdek, fanni o'rganishda hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qarorlar va qonunlar, me'yoriy hujjatlar hamda iqtisodiy adabiyotlardan keng foydalaniladi. Fanni o'rganish quyidagi fanlar bo'yicha bilimga ega bo'lishni taqazo etadi: "Iqtisodiyot nazariyasi", "Makroiqtisodiyot", "Mikroiqtisodiyot", "Statistika", "Audit", "Moliyaviy hisob", "Iqtisodiy tahlil", "Moliya", "Soliqlar va soliqqa tortish", "Pul, kredit va banklar", "Menejment", "Marketing", "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar", "Sug'urta ishi", "Kichik biznes va tadbirkorlik".

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, uquviga va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar

Mazkur yo'nalishda o'qiydigan talabalar "Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari" fani bo'yicha chuqur bilim olishi va etuk mutaxassis bo'lib etishishlari uchun quyidagi talablarni bilishni zaruriyat qilib qo'yadi:

- hozirgi zamon taraqqiyotida halqaro buxgalteriya hisobining ahamiyati va o'rnini;
- buxgalteriya fani iqtisodiyotni o'rganishning asosiy mezoni ekanligini;
- iqtisodiyotning turli sohalarini samarali boshqaruvida buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asos bo'lib xizmat qilishini;
- ishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri hisobga olish va mahsulot tannarxini to'g'ri belgilashni;
- huquqiy davlat yoshlari, ayniqsa buxgalter va auditor mutaxassisligini egallovchi talabalar huquqshunoslik fanlarini chuqur egallagan bo'lishi lozimligini;
- moliyaviy natijalar bo'yicha o'zlarining xulosa va takliflarini keltirishni;
- iqtisodiy siyosatni shakllantirishda buxgalteriya hisobi muhim bo'g'in ekanligini.

O'qitish jarayonida nazariy bilim bilan amaliy bilimni solishtirish usullarini tashkil etish, talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini tobora orttirib, ular uchun imkon qadar mustaqil bilim olishiga sharoit yaratib berish lozim.

Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar

Talabalarga zamonaviy usulda "Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari" fanini o'rgatish va ularning bilimini baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- O'quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga ko'chirish;
- Talabalarni avvaldan tarqatma o'quv materiallari bilan ta'minlash;
- Tayanch iboralarini ishlab chiqib, talabalarning ularni to'la o'zlashtirishiga erishish;

- Amaliy mashg'ulotlarda har bir tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda ish o'yinlarini qo'llash;
- Iqtidorli talabalar bilan qo'shimcha darslar tashkil etish;
- Talabalar bilimlarini o'zlari baholashi va mustaqil ishlashi uchun sharoitlar yaratib berish.

Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar

"Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari" fani talabalarga VII va VIII semestrlarida o'qitiladi. Har ikki semestrda boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari haqida tushunchalar hamda qoidalar o'rgatiladi. Fanni o'rganish ma'ruza va amaliy mashg'ulot shaklida auditoriyada amalga oshiriladi. O'quv jarayoni reyting tizimi asosida tashkil qilinadi va talabalarning o'zlashtirish darajasi o'qituvchilar tomonidan baholanadi.

Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha hajmi

Oliy kasb ta'limning davlat standartida "Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari" faniga jami 184 soat hajmda vaqt ajratilgan. Shundan, ma'ruza 92 soat, amaliy mashg'ulot 92 soatni tashkil etadi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulot hamda mustaqil ta'lim o'qituvchilar rahbarligida auditoriyada o'tiladi.

2. FAN DASTURI

Ma'ruza mashg'ulotlarining namunaviy mavzusi

Kapital qo'yilmalar (investitsiyalar)ni pudratchi tashkilotlardagi hisobining xususiyatlari

Kapital qo'yilmalar (investitsiyalar) to'g'risida tushuncha. *Kapital qo'yilma (investitsiyalar)lar hisobi oldida turgan vazifalar.* Qurilishlarning tashkiliy shakllari va ularning kapital qo'yilmalar hisobini tashkil qilishga ta'siri. Kapital qo'yilmalarni turkumlash: kapital ishlarning turlari bo'yicha, xarajatlarning tarkibi va kapital qo'yilmalarning yo'nalishlari bo'yicha. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida kapital qo'yilmalarni (investitsiyalarni) moliyalashtirish manbalari.

Qurilish materiallarini hisobga olish xususiyatlari

Qurilish materiallarini turkumlash va baholash. Qurilish materiallari, butlovchi qismlar, konstruktsiyalar va boshqalarni buxgalteriyada hisobga olish xususiyatlari. Tayyorlov - ombor xarajatlarini hisobga olish va taqsimlash tartibi. *Materiallarni omborda va buxgalteriyada hisobga olish(operativ-saldo va buxgalterlik uslublari).* Ochiq joyda saqlanayotgan qurilish materiallarini hisobga olish xususiyatlari.

Xo'jalik va pudrat usullarida bajarilgan kapital qo'yilmalarning buyurtmachidagi hisobi

Xo'jalik va pudrat usulidagi kapital qo'yilmalarning hisobini tashkil etish. *O'rnatiladigan va montaj qilish talab etilmaydigan uskunalarni hisobga olish.* O'rnatiladigan asbob-uskunalar va boshqa asosiy vositalarni hisobga olish tartibi. Xo'jalik usulidagi kapital qo'yilmalar hisobi. Asosiy vositalarni sotib olish va qurilishning sintetik va analitik hisobini tashkil qilish. Tugallangan qurilishlarni hisobga olish va ularning inventar qiymatini aniqlash.

Qurilishda pul mablag'lari va hisob-kitoblar hisobi

Qurilish tashkilotlarida pul mablag'lari va tashkilotlar o'rtasida hisoblashlar hisobining vazifalari. Naqd pul kassa muomalalarining hisobini yuritish tartibi. *Bank muassasalardagi schetlarni yuritish hisobi.* Pul ekvivalenti, qo'ldagi pullar schyoti, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar schyoti.

Qurilish xarajatlarini turkumlash, hisobga olish va tannarxga qo'shish tartibi

Qurilish tashkilotlarida yordamchi ishlab chiqarishni hisobga olish. Tugallanmagan ishlab chiqarishlarni baholash va hisobga olish. Ishlab chiqarishda yaroqsiz mahsulotni hisobga olish. Qurilishda asosiy va qo'shimcha ish haqini hisobga olishning xususiyatlari, uni taqsimlash tartibi. Davr xarajatlari va kelgusi davrlar xarajatlarini hisobga olish. *Qurilish ishlab chiqarishda xarajatlarning analitik va sintetik hisobini tashkil etish, tugallanmagan ishlab chiqarishlarni baholash va hisobga olish, tugallangan qurilish-montaj ishlarining tannarxini aniqlash.*

Qurilish tashkilotlarida bajarilgan ishlarni hisobga olish. Hisobotlarni tuzish va taqdim etish tartibi

Bajarilgan va buyurtmachilarga topshirilgan qurilish-montaj ishlarini hisobga olish. Tugallangan qurilish ob'ektlarini sotish bo'yicha buyurtmachilar bilan hisoblash. Pudratchi tashkilotlarda hisobot tuzish va topshirish. Yig'ma hisobotlar.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobi xususiyatlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirishda buxgalteriya hisobining o'rni va vazifalari. *Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlari va uning hisobini tashkil etishga ta'siri.*

Qishloq xo'jaligi korxonalarida xarajatlar hisobi va mahsulotlar tannarxini aniqlash

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobining vazifalari. Ishlab chiqarish xarajatlarini turkumlash.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va dehqonchilik mahsulotlari tannarxini hisoblash. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va chorvachilik mahsulotlari tannarxini hisoblash. g'rdamchi va sanoat ishlab chiqarishlari xarajatlarini hisobga olish va mahsulot (ish va xizmatlar)lar tannarxini aniqlash.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida mol etkazib beruvchi, xaridorlar va boshqa tashkilotlar bilan hisob-kitoblar hisobi

Mol etkazib beruvchilar bilan hisob kitoblarni tashkil qilish. Tovar materiali va boshqa aktivlar bo'yicha to'lovlar hisobi. Berilgan bo'naklar bo'yicha hisob-kitoblar. Da'volar yuzasidan hisoblashishlar. Olingan bo'naklar bo'yicha hisoblashishlar. Davlat byudjeti tashkilotlari bilan hisoblashishlar. Hisobdor shaxslar bilan, ta'sischi bilan, turli xil debitor va kreditorlar, sho'ba korxonalar, yuqori tashkilotlar bilan hisoblashishlarni yuritish tartibi. Byudjetdan tashqari fondlar bo'yicha hisoblashishlar.

Qishloq xo'jaligida xususiylashtirish hisobi o'ziga xos xususiyatlari

Qishloq xo'jaligida ijara munosabatlarini hisobga olish. Fermer xo'jaliklarida, dehqon xo'jaliklarida xarajatlarni hisobga olish. Paychilik asosida tashkil etilgan xo'jaliklarda xarajatlarni hisobga olish.

Tayyor mahsulotlar va ularning sotilishini hisobga olish. Moliyaviy natijalarni hisobga olish va korxonalar hisobotini tuzish

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni qabul qilish, saralash, sotishga tayyorlash va sotish hisobining xususiyatlari. Asosiy podani tashkil qilish va hayvonlarni hisobdan chiqarishini hisobga olish. Qishloq xo'jaligi korxonalarida fondlar va moliyaviy natijalar hisobi. Moliya, soliq va sug'urta tashkilotlari bilan hisoblashishlar. Yig'ma hisobotlar. Moliyaviy hisobotlar tarkibi. Hisobotlarni tuzish va taqdim etish tartibi. Moliyaviy hisobotni to'ldirish to'g'risidagi hisob siyosati.

Savdo-tijorat tashkilotlarda buxgalteriya hisobi xususiyatlari

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda tijorat tashkilotlarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari va ularning vazifalari. *Ulgurji savdo korxonalarida tovarlarni hisobga olish. Omborlarda, bazalarda va buxgalteriyada tovarlarni hisobga olish. Tovarlar iste'molchilarga va vositachilarga sotish muomalalari. Savdo ustamasi va savdo qo'shimchasini hisobga olish tartibi. Muomalalarda tranzit usulida tovarlar aylanishini hisobga olish. Chakana savdoda sotish muomalalarining shakllari. Sintetik va analitik hisobni tashkil qilish. Kassa muomalalarining xususiyatlari.*

Muomala xarajatlarini va moliyaviy natijalarni hisobga olish

Savdo tashkilotlarida muomala xarajatlarini hisobga olish, ularning tarkibi. Mehnatni tashkil qilishning shakllari va unga haq to'lash. Buxgalteriya hisobini yuritish jarayonlarini avtomatlashtirish. *Muomala xarajatlarini sotilgan va omborda qolgan tovarlar qiymatiga qo'shish tartibi.* Savdo tashkilotlarida byudjet tashkilotlari bilan hisoblashishlarning o'ziga xos xususiyatlari. Savdo korxonalarida hisobot tuzish. *Hisobotlar tarkibi: buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalarni shakllantirish, asosiy vositalarning harakati to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot va hisobotga ilovalar, tushuntirishlar, izohlar.*

Transport tashkilotlarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari

Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabat bilan transport tashkilotlarida buxgalteriya vazifalari. Asosiy vositalar hisobi, harakatdagi tarkibni hisobga olish xususiyatlari. Asosiy vositalar amortizatsiyasi hisobi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish, yuk, bajarilgan ish va xizmatlarning tannarxini hisoblash. Lizing muomalalari hisobining xususiyatlari. Asosiy vositalarni ijaraga olish va ijaraga berish hisobi. Yuklarni mamlakat ichida va mamlakatlararo tashilganda sarf qilinadigan xarajatlar va bu boradagi hisoblashishlarning turlari. *Transport tashkilotlarida fondlar va moliyaviy natijalarni hisobga olishning xususiyatlari.*

Transport tashkilotlarida kapital fondlar, moliyaviy natijalar hisobi

Kapital, uning tarkibi (ustav, qo'shilgan, rezerv). Kapitalning transport korxonalarida tutgan o'rni va hisobning vazifalari. Kapitalni tashkil qilish manbalari, ustav kapitalining manbai, qo'shilgan kapitalning manbai, rezerv kapitalning manbai. Moliyaviy natijalarni aniqlash hisobi; asosiy faoliyatdan olingan moliyaviy natijalar, umumxo'jalik faoliyatidan olingan moliyaviy natijalar. Soliq to'lagunga qadar foydani aniqlash hisobi. Sof foydani aniqlash va taqsimlash tartibi.

3. AMALIY MASHG'ULOTLARNING NAMUNAVIY MAVZUSI

Kapital qo'yilmalar (investitsiyalar)ni pudratchi tashkilotlardagi hisobining xususiyatlari

Kapital qo'yilma(investitsiyalar)lar hisobi oldida turgan vazifalar*. Qurilishlarning tashkiliy shakllari. Kapital qo'yilmalarni turkumlash: kapital ishlarining turlari bo'yicha xarajatlarning tarkibi va kapital qo'yilmalarning yo'nalishlari bo'yicha*. Kapital qo'yilmalarni (investitsiyalarni) moliyalashtirish manbaalari.

Qurilish materiallarini hisobga olish xususiyatlari

Qurilish materiallarini turkumlash va ularni baholash*. Qurilish materiallari, butlovchi qismlar, konstruktsiyalar va boshqalarni buxgalteriyada hisobga olish xususiyatlari*. Materiallarni omborda va buxgalteriyada hisobga olish (operativ-saldo va buxgalterlik uslublari). Ochiq joyda saqlanayotgan qurilish materiallarini hisobga olish xususiyatlari.

Xo'jalik va pudrat usullarida bajarilgan kapital qo'yilmalarning buyurtmachidagi hisobi

Xo'jalik va pudrat usulida kapital qo'yilmalar hisobini tashkil etish*. Xo'jalik usulidagi kapital qo'yilmalarning hisobi*. Tugallangan qurilishlarni hisobga olish va ularning inventar qiymatini aniqlash.

Qurilish xarajatlarini turkumlash, hisobga olish va tannarxga qo'shish tartibi

Qurilish tashkilotlarida yordamchi ishlab chiqarishni hisobga olish*. Qurilishda asosiy va qo'shimcha ish haqini hisobga olishning xususiyatlari, taqsimlash tartibi. Davr xarajatlar va kelgusi davrlar xarajatlarini hisobga olish*.

Qurilish tashkilotlarida bajarilgan ishlarni hisobga olish. Hisobotlarni tuzish va taqdim etish tartibi

Bajarilgan va buyurtmachilarga topshirilgan qurilish-montaj ishlarini hisobga olish*. Pudratchi tashkilotlarda hisobot tuzish va topshirish*. Yig'ma hisobotlar bo'yicha hisobot shakllari to'lg'aziladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirishda buxgalteriya hisobining o'rni va vazifalari*. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlari va uning hisobini tashkil etishga ta'siri o'rganilib seminar darslari o'tkaziladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida xarajatlar hisobi va mahsulotlar tannarxini aniqlash

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va o'simlikchilik mahsulotlari tannarxini hisoblash*. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va chorvachilik mahsulotlari tannarxini hisoblash*. g'rdamchi va sanoat ishlab chiqarishlari xarajatlarini hisobga olish va mahsulot(ish va xizmatlar)lar tannarxini aniqlash.

Qishloq xo'jaligida xususiylashtirish hisobining o'ziga xos xususiyatlari

Qishloq xo'jaligida ijara munosabatlarini hisobga olish*. Fermer xo'jaliklarida, dehqon xo'jaliklarida xarajatlarni hisobga olish.

Tayyor mahsulotlar va sotishni hisobga olish. Moliyaviy natijalarni hisobga olish va korxonalar hisobotini tuzish

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni qabul qilish, saralash, sotishga tayyorlash va sotish hisobining xususiyatlari*. Qishloq xo'jaligi korxonalarida fondlar va moliyaviy natijalar hisobi. Moliya, soliq va sug'urta tashkilotlari bilan hisoblashlar. Moliyaviy hisobotlar va uning tarkibi.

Savdo-tijorat tashkilotlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari

Ulgurji savdo korxonalarida tovarlarni hisobga olish. Tovarlar iste'molchilarga va vositachilarga sotish muomalalari. Muomalalarda tranzit usulida tovarlar aylanishini hisobga olish. Sintetik va analitik hisobni tashkil qilish.

Muomala xarajatlarini va moliyaviy natijalarni hisobga olish

Savdo tashkilotlarida muomala xarajatlarini hisobga olish, ularning tarkibi*. Savdo tashkilotlarida byudjet tashkilotlari bilan hisoblashishlarning o'ziga xos xususiyatlari. Hisobotlar tarkibi: buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalarni shakllantirish, asosiy vositalarning harakati to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot va hisobotga ilovalar, tushuntirishlar, izohlar.

Transport tashkilotlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari

Transport tashkilotlarida buxgalteriya hisobining vazifalari*. Asosiy vositalar hisobi, harakatdagi tarkibni hisobga olish xususiyatlari.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish, yuk, bajarilgan ish va xizmatlarning tannarxini hisoblash. Transport tashkilotlarida fondlar va moliyaviy natijalarni hisobga olishning xususiyatlari bo'yicha aniq transport tashkilotlari misolida hisobot shakllarini to'lg'azishladi.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI

"Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari" fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun kafedra o'qituvchilari rahbarligida mustaqil ta'lim oladilar. Mustaqil ta'lim olish uchun talabalarga kafedra o'qituvchilari tomonidan mavzular beriladi. Shuningdek, buxgalteriya hisobini o'rganish bilan birga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda amaliyot o'taydilar. Institutni tugatishda belgilangan amaliyotlardan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning materiallaridan foydalanib malakaviy ish yozadi. Mustaqil ta'lim mavzulari va topshiriqlari o'qituvchilar tomonidan tavsiya qilinadi.

"Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari" fanini o'rganishda talabalar ushbu fan bo'yicha qo'llaniladigan amaliy yordam tariqasida turli shakldagi, chizmalar, slaydalar bilan ta'minlanadi.

Talabalar axborot vositalaridan ya'ni internet tizimidan, jumladan, quyidagi sayd va elektron pochtalardan foydalanish mumkin:

1. <http://www.apb.org.uk> (Auditing Practices Board);
2. <http://www.nao.gov.uk> (UK National Audit Office);
3. <http://www.iaa.org.uk> (The Institute of Internal Auditors-United Kingdom);
4. <http://www.iasc.org.uk> (International Accounting Standards Committee);
5. <http://www.aicpa.org/index.htm> (American Institute of Certified Public Accountants).

Shuningdek, talabalar Respublikamizda chop etilgan gazeta va jurnallardan foydalanadilar.

5. O'ZLASHTIRISH NAZORATI

Ushbu fan bo'yicha o'quv rejasida jami 276 soat dars o'tish rejalashtirilgan bo'lib, shundan 92 soat ma'ruza, 92 soat amaliy va seminar darslar hamda 92 soat mustaqil ta'lim. O'quv jarayoni davomida talaba to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball 276 ga teng bo'lib, shundan joriy baholashga 110,4 ball, oraliq baholashga 82,8 ball va yakuniy baholashga 82,8 ball ajratiladi. Yozma ish variantlar bo'yicha tuzilib, u o'quv dasturiga to'liq mos kelishi ta'minlanadi.

Yozma ish variantlarini baholash mezonlari kafedra majlisi bayonnomalari bilan tasdiqlanadi.

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, - T.: O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O'zbekiston, 1998.
3. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 1996 yil 30 avgust. // "Xalq so'zi" gazetasi, 1996, 12 sentyabr.
4. "Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risi"da Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini 1999 yil 5 fevral 54-sonli qarori).
5. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 1997 yil 15 yanvar 5-sonli buyrug'i (Yillik va yarim yillik hisobotlarni to'ldirish to'g'risida).
6. "Buxgalteriya hisobining milliy standartlari"(BHMS). O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi. – T.: 1998.
7. Vohidov.S. Xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari, - T.: Mehnat, 1993.
8. Sotivoldiev.A.S. Itkin.Yu.M. Zamonaviy buxgalteriya hisobi (Yangi schyotlar rejasi asosida), PB va AA-2002 yil. 1-2 tom.
9. Rizaqulov.A.A. Fermer xo'jaliklarda buxgalteriya hisobi, - T.: Fan, 1998.
10. Vlasov.V.M. Buxgalterskiy uchets v torgovle, - M.: Finansi i Statistika, 1996.
11. G'ulomova. F. Buxgalteriya hisobidan qo'llanma. - T.: Mehnat, 2001.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, - T.: 1997.
2. Frenk Vud. Buxgalterskiy uchets dlya predprinimateley. - M: O.Askeri.1996.
3. Sotivoldiev.A.S. Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobi. - T.: Mehnat. 1991.
4. Entoni. R., Ris. Dj. Uchet: situatsii i primeri": (per s ang). - M.: Finansi i statistika, 1993.
5. Gadoev E. "Moliyaviy hisobotning kontseptual asoslari" O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy Qonunlari. 1999 yil 2-son.
6. "Bozor, pul va kredit" jurnalining 2000-2003 yil sonlari.
7. "Soliq va bojxona xabarlari" gazetasining 2000-2003 yil sonlari.
8. "O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy Qonunlari" Axborotnomasining 1999-2003 yil sonlari (Ilovalar bilan birga).

9. Yangi schyotlar rejasi. PB va AA-2002 yil.
10. Fremgen F.M. Accounting for managerial Analysis: Third Edition. Richard D. Irwing Inc., Homewood, Illions,1996.
11. Kenneth M. Morris & Allan M. Siegel. Guide to understanding money & investing. 2000 by lightbulb, press, Inc.
12. Securities Regulation in THE Unite States. NASD. Washington-2000.